

Oriental Journal of Education



ORIENTAL JOURNAL OF EDUCATION

journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/oje>



MUSEUM OF COMMUNICATION HISTORY

Shakhista A. Ergasheva

Student

*National Institute of Painting and Design named after Kamoliddin Behzod
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: museum, object, item, fund, material, exhibit, exposition, explanation, section.

Abstract: This article talks about the activities of the Museum of Communication History. Information about exhibitions, events and exhibits held in the museum is provided.

Received: 31.05.24

Accepted: 02.06.24

Published: 04.06.24

ALOQA TARIXI MUZEYI

Shaxista A. Ergasheva

Talaba

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institute
Toshkent, O'zbekiston*

МАҚОЛА НАҚИДА

Kalit so'zlar: muzey, predmet, buyum, fond, material, eksponat, ekspositsiya, eksplikatsiya, bo'lim.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Aloqa tarixi muzeysi faoliyati haqida so'z yuritiladi. Muzeyda olib borilayotgan ko'rgazmalar, tadbirlar, undagi eksponatlar haqida ma'lumotlar yoritilgan.

МУЗЕЙ ИСТОРИИ СВЯЗИ

Шахиста А. Эргашева

Студент

*Национальный институт живописи и дизайна имени Камолиддина Бехзода
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: музей, предмет, фонд, материал, экспозиция, пояснение, раздел.

Аннотация: В данной статье рассказывается о деятельности Музея истории связи. Освещается информация о выставках, мероприятиях и экспонатах, проводимых в музее.

KIRISH

Aloqa tarixi muzeyi 2009-yil 24-oktyabrdan buyon o‘z faoliyatini yuritib kelmoqda. Mustaqillik yillaridagi aloqa sohasidagi yangi texnologiyalar va telekommunikatsiya vositalarining rivojlanishiga muzeyda alohida o‘rin ajratilgan bo‘lib, bular: mobil aloqa kompaniyalari, bank muassasalari – «Aloqabank», sug‘urta jamiyati – «Alskom», ommaviy axborot vositalari – «Xabar» soha viy gazetasi, «Infotsom.uz» jurnali, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bir qatorda meyoriy hujjatlar ishlab chiqarish va chop etish bilan shug‘ullanuvchi UP «Unitson.uz» va mustaqillik yillarida tashkil etilgan korxonalar. Mustaqillik yillarida aloqa sohasida erishilgan yutuqlarga bag‘ishlangan muzey ekspozitsiyasi uch qavatda joylashgan:

1. Pastki qavat
2. Birinchi qavat
3. Ikkinci qavat

ASOSIY QISM

Pastki qavat ekspozitsiyasi 2010-yilning 25-iyunida muzeyning pastki qavatidan joy olgan eksponatlarning rasmiy ochilishi bo‘lib o‘tdi. Sizning e’tiboringizga uy yerdan joy olgan o‘tgan asrning o‘rtalaridan foydalana boshlangan taksafon va taksafon apparat namunalari havola etilgan. Shuningdek, pastki qavat ekspozitsiyasida o‘lchov uskunalar, XX asrda qo‘llanilgan aloqa kabellari va sohaviy kutubxona joy olgan. Kutubxonada o‘tgan asrning 30-yillardan hozirgi kungacha chop etilgan texnik adabiyotlardan 1000 tasi mavjud .

Birinchi qavat ekspozitsiyalari 1-qavatdagi holl markazida XVII-XIX asrlarda ot-arava orqali pochta etkazib berish maketi joylashgan.

Ikkinci qavat ekspozitsiyasi aloqa va axborotlashtirish tarixining rivojini aks ettiruvchi “Aloqa sohasining rivojlanish shajarasi” ochib beradi. “Aloqa sohasining rivojlanish shajarasi” o‘zida aloqa sohasining barcha rivojlanish bosqichlarini, yani chopar-elchilar orqali, kabutarlar orqali, olovli va tutunli ishoralar orqali ma’lumot uzatishning eng sodda usullari, pochta aloqasi rivojlanishining boshlang‘ich bosqichlari: telefon, telegraf, radio, televideniyadan to hozirgi zamonaviy aloqa almashinuv usullarini – elektron pochta, internet, mobil aloqa, interaktiv televideniya va boshqalar – ko‘rsatib bergen. Muzey ekspozitsiyasining barchasi “Aloqa sohasining rivojlanish shajarasi”ga muvofiq joylashtirilgan.

Aloqa tarixi bo‘limi. Yangi ekspozitsiya zinadan boshlangan bo‘lib, u yyerdan mashxur telefon ixtirochisi A.Bellning, qadimiy telefon apparatlarining fotosuratlari va boshqalar joy olgan. Pastki qavatga tushaverish yo‘lakchasiga televizor, radiopriyomniklar va XX asrning ikkinchi yarimida foydalanilgan telefon apparatlari qo‘yilgan. Pastki qavat hollidagi podiumlarga o‘tgan asrning 30-yillardan boshlab to 90-yillarigacha foydalanilgan o‘lchov texnikasi uskunalaridan namunalar joylashtirilgan. U yerda otsillograflar, optits tolali, shaharlar va shaharlararo kabel aloqa

parametrlarini o'lchovchi uskunalar mavjud. Shuningdek, u yyerdan joy olgan, 1938-yilda chiqarilgan qoplamasи taxtadan ishlangan, ishchi holatidagi voltmeter alohida qimmatga ega. Pastki qavat devorlariga 1950-yildan to hozirgi kunimizgacha foydalanilayotgan taksofonlarning turli modifikatsiyalari (namunalari) o'rnatilgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, taksofonlar ishchi holatda. Ekspozitsiyadan shaharlar va shaharlararo aloqa liniyalarini qurishda, shuningdek, radiolashtirishda ishlatilgan kabel namunalari stendi alohida o'rin egallagan. Pastki qavatga kiraverishda muzey mutaxassislari tomonidan yasalgan XX asrning boshlariga oid qadimiy devor telefon apparati maketi, ishlaydigan holatda, joy olgan. Agentlik taklifiga binoan pastki qavatda kutubxona tashkil etilgan. U ikki xonadan iborat bo'lib, birinchi xonadan qiroatxona va Respublika axborot kutubxona markazining ekspozitsiyasi, ikkinchi xona esa maxsus kitob javonlari bilan jihozlangan bo'lib, u yyerdan soha ga oid kitoblar, jurnallar, o'quv qo'llanmalari, lug'atlar va boshqa texnik adabiyotlar joy olgan. Bu kitoblarning ayrimlari o'tgan asrning 30-yillarida chop etilganligi bilan qimmatli. Kutubxona fondida 800 dan ortiq adabiyot mavjud. Kitoblardan foydalanishni tarixiy va zamonaviy uslublarini tashrif buyuruvchilarga namoyish etish maqsadida kutubxonaning o'quv zalida ikkita maneken hamda supa va xontaxtadan iborat kompozitsiya joylashtirilgan. hozirgi kunda "Aloqa tarixi" muzeyining pastki qavat ekspozitsiyasi keng omma etiboriga o'z eksponatlarini namoyish etib kelmoqda. hozirgi kunda "Aloqa tarixi" muzeyining pastki qavat ekspozitsiyasi keng omma etiboriga o'z eksponatlarini namoyish etib kelmoqda.

Muzeyning ostki qavatida joylashgan yangi ko'rgazma zali yana bir noyob eksponat, ya'ni 50 raqamga mo'ljallangan dekadno-qadamli avtomatik telefon sansiyasi (ATs) bilan boyitildi. Mazkur ATs "O'zbektelekom" AKning "Farg'ona telekom" filiali tomonidan muzeyga sovg'a qilindi va uning ishlab chiqarish labaratoriya mutaxassislari: Rojikoriev K.N., Shamsutdinov D.D., Datsko S.N. tomonlaridan montaj ishlari yakuniga etkazildi. ATsning ayrim priborlarini sozlangandan so'ng, muzey tashrifchilari ATs ishslash prinsipi bilan tez kunda tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Har yilning 18-mayi Xalqaro muzeylar kuni sifatida dunyo miqyosida nishonlanishi muzeylarning hayotimizda o'ziga xos o'rni, ahamiyati borligidan dalolatdir. Haqiqatan ham muzeylar o'tmishni hozirgi kun va keljak bilan bog'lovchi o'ziga xos ko'prik sifatida muhim o'rin tutadi. Muzeyga yiqilgan osori-atiqalarni tomosha qilar ekan, har bir inson ajdodlarimiz qay tarzda hayot kechirganlari, taraqqiyot qay holatda rivojlanib borgani, bu yo'lda kimlar o'zining munosib hissasini qo'shganligiga guvoh bo'ladi. Va pirovardida ko'ngillarda ajdodlari olib borgan ishlardan paydo bo'lgan g'urur yuksaladi. U bugunning qadriga ko'proq yeta boshlaydi. Shuning uchun ham muzeylarga odamlar, ayniqsa, yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytiruvchi vosita sifatida haraladi va katta ahamiyat beriladi. O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi

rahbarlarida soha ga oid muzey tashkil etish fikrining paydo bo'lishida ham ana shu maqsad mujassam edi.

Xalqaro muzeylar kuni munosabati bilan soha tarixini o'zida aks etdiruvchi Aloqa tarixi muzeyi haqida gazetxonlarga batafsil hikoya qilish maqsadida yo'lga tushdik. Zero, ushbu muzey nafaqat o'tmishni o'zida mujassam etuvchi, balki soha ga oid ko'plab xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlarga mezbonlik qiluvchi ajoyib maskan sifatida ham o'ziga xos ahamiyatga egadir. Poytaxtimizning bunyodkorlik ishlari shiddat bilan davom etayotgan Navoiy ko'chasidan muzey tomon burildik. Ayni o'sha joyga muzey binosi surati tushirilgan panno ilinib, qaysi tomonga yurish ko'rsatilgan belgi qo'yilibdi. Aloqa tarixi muzeyi esa suratdagidan o'n chandon salobatli va muhtasham edi. Eshikdan kirishimiz bilan eksponatlarni katta hayrat va qiziqish bilan tomosha qilayotgan bolajonlarga ko'zimiz tushdi. Biz ham o'zgacha hayajon bilan yumshoq gilamlar uzra ichkariga yo'naldik. Bizni qo'qonlik hunarmandlar tomonidan muzey uchun maxsus yasalgan ot qo'shilgan ulkan qildirakli aravada pochta jo'natmalarini olib ketayotgan pochtachilar "kutib olishdi". Ushbu arava maketni uzoqdan haqiqiy yo'rg'alab borayotgan otga o'xshatish mumkin edi. Chap tomonga esa turli yillarda nashr etilgan pochta markalari qo'yilgan.

Ekspozitsiyadagi alohida e'tiborni Toshkent teleminorasining maketi o'ziga tortadi.

Ikkinci qismida esa xalqaro teleminoralar federatsiyasi a'zolari bo'lmish bir qator teleminoralar fotosuratlari joylashtirilgan. Ekspozitsiya asosan dunyoning buyuk teleminoralar fotosuratlari hamda Toshkent teleminorasi maketidan tuzilgan va ikki qismga bo'linib, birinchisiga dunyo miqyosida balandligi bo'yicha birinchi o'nlikdan joy olgan teleminoralar hamda Eyfel minorasining fotosuratlari va ular haqidagima'lumotlar, markazda esa Toshkent teleminorasining maketi joylashtirilgan. Ekspozitsiyaning ikkinchi qismida ikkinchi o'nlikka kiruvchi teleminoralarning fotosuratlari o'rnatilgan. Unga kiritilgan har bir teleminora o'z tarixi, me'moriy echimiga ega bo'lib, aksariyati o'z mamlakatlari ramziga aylangan, holaversa, Jahon buyuk minoralar federatsiyasi a'zosi hisoblanadi. Ekspozitsiya muzey xodimlari tomonidan tayyorlangan, Toshkent teleminorasi maketi esa Radioaloqa, radioeshittirish va televideenie markazi tomonidan taqdim etilgan. Muzeyga tashrif buyuruvchilar – aloqachilar, talabalar, maktab o'quvchilari endi shiddat bilan rivojlanayotgan axborot asri shijoatini aks ettiruvchi osmono'par bu inshootlar bilan ham yaqindan tanishishadi, inson zakovatiyu qudratiga yana bir bor tasannolar aytishadi.

"Musiqa va axborot tashuvchi vositalar" bo'limiga qo'yilgan qadimiy eksponatlar, ayniqsa, o'tgan asrda keng foydalanishda bo'lган gramplatsinkalar, yumshoq disklar va kassetalar, umuman, axborotni saqlash, uzatish, etkazish uchun mo'ljallangan texnik vositalar o'z aksini topgan.

Muzeyning ostki qismida joylashgan ekspozitsiya zali esa 2010-yilda ochilgan. Bu yerda kutubxona, o'lchov uskunalari hamda turli stendlardan iborat ekspozitsiya mavjud. Tarixiy ahamiyatga ega, XX asrning boshlarida ishlab chiqarilgan jamoat telefonlaridan birining maketi

xollga kiraverishdagi devorga o‘rnatilgan. Alovida e’tiborni o‘tgan asrning ikkinchi yarmida foydalanishda bo‘lgan taksofonlar o‘ziga tortadi.

Turli o‘lchov vositalari, ya’ni ossillograflar, optik tolali kabellarni payvandlovchi va boshqa qurilmalardan iborat kompozitsiya xollning o‘rtasidagi podiumga joylashtirilgan. Aloqa liniyalari qurilishida XX asrda foydalanilgan kabellar, simlar va liniya materiallari, optik kabel namunalarini, telefon bokslardan iborat stendlar ham shu yerdan o‘rin olgan.

Qadimda Buyuk Ipak yo‘li orqali axborot almashish ishlari choparlar yordamida yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu karvon yo‘li bo‘ylab, har 15-20 kilometr chamasi oralig‘ida alovida rabotlar (pochta stantsiyalari) bo‘lib, ushbu rabotlar g‘arbiylar tomonidan qo‘riqlangan. Choparlik xizmatini o‘tovhilar xonlikning maxsus kumush yoki bronzadan yasalgan 3-6 santimetrli, egalari nomi ko‘rsatilgan tamg‘alar bilan ta’minlangan. Ushbu tamg‘alar choparlarga karvon yo‘llari va belgilangan yo‘nalishlarda erkin harakatlanish, xonlik pitsirmalaridan bemalol o‘tish, ovqatlanish, otlarni almashtirish, dam olish va o‘zidagi barcha axborotlarni keyingi choparga uzatish imkoniyatlarini bergen. Pochta xizmatlari taqdim etilishida va davriy nashrga obuna qilishda turli tarixiy davrlarda foydalanilgan asboblar, shuningdek, pochta tashuvchilar va pochta operatorlarining bir asr avvalgi hamda bugungi kundagi maxsus kiyimlari tashrif buyuruvchilar e’tiboriga havola etilgan.

O‘zbekistonda telegraf, telefon aloqasi rivojlanishi aks ettirilgan ekspozitsiya o‘zining dizayni bilan tomoshabin e’tiborini o‘ziga tortadi. Ekpozitsiyada Morze telegraf apparatidan boshlab zamonaviy telegraf apparatlarigacha bo‘lgan apparatlar to‘plami, XX asr boshida foydalanilgan, ishchi holatiga keltirilgan telefon apparatining maketi, 1930-1970-yillarda foydalanilgan turli telefon apparatlari hamda shaharlararo so‘zlashuvlarni ta’minlaydigan kommutator joylashtirilgan. Ba’zilarining ishlab chiqarilganiga 80 yildan ko‘p vaqt bo‘lishiga qaramay, har bir itsovchi ularning aniq va sifatli ishlashiga guvoh bo‘lishi mumkin.

Radio va televiedenie rivojlanishiga bag‘ishlangan ekspozitsiya muzeyda alovida o‘rin egallaydi. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasida radio 1915-yildan rivojana boshlagan. Shu yili Toshkent shahrida birinchi uchqunlik radiostantsiyasi ishga tushirilgan va keyinchalik keng qamrovli radiotarmoqga aylangan. Ekspozitsiyada turli rusumdagagi radio va televizorlar ham o‘rin olgan. Mobil aloqa operatorlari ekspozitsiyalarida mamlakatda mobil aloqa paydo bo‘lgan paytdan boshlab foydalanilgan har xil sandartdagi mobil telefonlar joylashtirilgan.

Biz uchinchi qavatga ko‘tarilganimizda "Elektraloqa asoschilari" fotogalereasiga ko‘zimiz tushadi. Unda jahonga taniqli olim va ixtirochilar Aleksandr Bell, Nikola Tesla, Maksvell, Edisonlar hamda ularning ro‘parasida faxrimiz va iftixorimiz bo‘lgan aziz bobolarimiz – Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Ulug‘beklarning siyomosi avlodlari olib borayotgan ishlardan mamnun qarab turishibdi go‘yo.

XULOSA

Mazkur muzeyda Virtual sayohat ham tashkil etilgan. Badiiy kartinalar galereasini, balki tarixiy, etnografik va boshqa muzeylarni aholining keng qatlami borib tomosha qilishga imkon topa olmaydi. Axir, boshqa bir qit'ada joylashgan Prado yoki Luvrga sayohat qilishga har kimning ham qurbi etmaydi. Bu borada soha vakillari zamonaviy axborot texnologiyalar imkoniyatlarini ishga solgan holda nodir kolleksiyalarini masofadan turib tomosha qilish imkonini yaratmoqdalar. Tarixiy manbalar va san'at asarlari rahamlashtirilib, internet orqali tarix va san'at ixlosmandlariga namoyish etilmoqda. Muzeylar haqida yanada kengroq ma'lumotga ega bo'lish, uni xuddi ichkaridan kuzatayotgandek, noyob durdonalarni oldidan ko'rgandek taassurot uyg'otuvchi virtual muzeylar bugun internetda bisyor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Орифжонова Г.Р. Ўзбекистон этномаданий меросини сақлаш, тадқиқ этиши ва намойиш этишнинг тарихий-маданий жиҳатлари (Ўзбекистон музейлари коллекциялари мисолида). Монография. – Тошкент: «Lesson-press» нашриёти, 2021. – Б 167.
2. <https://aloqamuzeyi.uz/>
3. Исмаилова Ж.Х., Левтеева Л. Музеи, галереи, арт-центры Ташкента. – Тошкент: Фан ва технология, 2017. – Б. 173.
4. Исмаилова Ж.Х., Левтеева Л. Музеи, галереи, арт-центры Ташкента. – Тошкент: Фан ва технология, 2017. – Б. 158.